

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 6 | **2025**
ISSUE 4

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 4

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 4



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети профессори (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси профессори,
филология фанлари доктори (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети, фалсафа доктори (PhD) (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессори, филология фанлари
доктори, (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

УСМАНОВ ИБРОҲИМ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний
Номидаги Шарқшунослик институти катта илмий ходими,
тарих фанлари номзоди, доцент (Ўзбекистон)

АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети профессори
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ҲЕЛАЛ АБДЕЛПРАЗЕК САДЕК АБДЕЛПРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
профессор в.б., фалсафа фанлари доктори (Dcs) (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети профессор в.б, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

AMIROV AZAMAT ODIL O'G'LI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi
O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha
Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori o'rinbosari
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АҚМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ҲҲЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Х.Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

Профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета
Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академик Академии наук Узбекистана,
Академии искусств Узбекистана, доктор
искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Профессор Центра евроазиатских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ИСФТ, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Профессор Международной исламской академии
Узбекистана, доктор филологических наук (Узбекистан)

КЛЕР РОСИЕН

Йельский университет, доктор философии PhD (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Профессор Университета CEU Сан-Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Профессор Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор филологических наук (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

УСМАНОВ ИБРОХИМ

Старший научный сотрудник Института востоковедения
имени Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана,
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

АХМЕД МУСА АБДЛАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Профессор Национального университета Казахстана
имени Аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

Профессор Андижанского государственного
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Профессор Наманганского государственного технического
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛЬБАР ИРГАШЕВНА

И.о. профессора Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (DSc) (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Профессор Навоийского государственного педагогического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

ЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

И.о. профессора Наманганский государственный университет,
доктор философских наук (PhD) по социологии (Узбекистан)

АМИРОВ АЗАМАТ ОДИЛ УГЛИ

заместитель директора координационно-методического
центра по вопросам новейшей истории Узбекистана при
Академии наук Республики Узбекистан, доктор
философских наук (PhD), доцент

ОДИНАЕВА ЗЕБИНСО ИБРОХИМОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философии (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРАД ОГЛИ

PhD докторант Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Х. Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan, Academician
of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan)

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Professor of International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

USMANOV IBROHIM

Associate Professor of Abu Rayhon Beruniy Institute
of Oriental Studies, Academy of Sciences of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences (Uzbekistan)

AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD (Arab Republic of
Egypt)

MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Professor of Andijan State University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

FAYZIKHODJAYEVA DILBAR IRGASHEVNA

Acting Professor of the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

Professor of the Navai State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Acting Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences
(Uzbekistan)

AMIROV AZAMAT ODIL UGLI

Deputy Director of the Coordination and Methodological Center for
the Latest History of Uzbekistan under the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in
Philosophical Sciences, Docent

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Kh.Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Tuychiyeva Nilufar Maxsutjanovna TASAVVUF ILMINI TIZIMLASHTIRISH JARAYONIDA ABU BAKR KALABODIY “TA’ARRUF” ASARINING AHAMIYATI.....	7
2. Odinaeva Zebiniso Ibrokhimovna ANALYSIS OF RESEARCH METHODOLOGIES BASED ON AXIOLOGICAL APPROACHES IN THE CONTEXT OF HUMANITARIAN SECURITY.....	14
3. Хакимова Нигора Алишеровна ПРЕДПИСАНИЯ И МУДРОСТЬ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ ШАРИАТОМ И ИСТИНОЙ.....	23
4. Kazakbayev Akbar Akmaldjanovich ZAMONAVIY ARAB TILIDAGI FRAZEOLOGIK IBORALARNING AYRIM SHAKLLARIGA TAHLILY NAZAR.....	32
5. Fozilov G‘olibjon Nabijonovich XX ASR FALSAFASIDA DAHOLIKKA OID EKZISTENSIAL VA FENOMENOLOGIK TALQINLAR.....	37
6. Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li SHARQSHUNOSLIK VA G‘ARBSHUNOSLIK: “BIZ” VA “BOSHQA” DISKURSINING TARIXIY-KOMPARATIV TAHLILI.....	47
7. Shamsiyeva Gulshoda Asliddin qizi THE IMPORTANCE OF THE PARALLEL CORPUS AS A LINGUISTIC BASE.....	55

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

ISSN: 2181-1040
www.tadqiqot.uz

Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Falsafa” kafedrasida tayanch doktoranti (PhD)
E-mail: roziboyevd831@gmail.com

SHARQSHUNOSLIK VA G‘ARBSHUNOSLIK: “BIZ” VA “BOSHQA” DISKURSINING
TARIXIY-KOMPARATIV TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18612649>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sharqshunoslik va g‘arbshunoslikning tarixiy genezisi hamda evolyutsiyasi komparativistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda asosiy e‘tibor Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarida “biz” va “boshqa” tushunchalarining shakllanish jarayonining ilmiy, madaniy, diniy va siyosiy omillar bilan bog‘liqligini ochib berishga qaratilgan. Shuningdek, maqolada sharqshunoslik va g‘arbshunoslikni turli tarixiy davrlarda soha sifatida shakllantirgan paradigmalari alohida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy-intellektual munosabatlarni chuqurroq anglash hamda zamonaviy sivilizatsion qarama-qarshiliklarning tarixiy ildizlarini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sharqshunoslik, g‘arbshunoslik, “biz” va “boshqa”, identiklik, orientalizm, oksidentalizm, bilim va hokimiyat, komparativistik tahlil.

Ruziboev Dostonbek Dilmurod ugli
National University of Uzbekistan
Department of “Philosophy”
Foundation Doctoral Student (PhD)
E-mail: roziboyevd831@gmail.com

ORIENTAL STUDIES AND OCCIDENTAL STUDIES:
A HISTORICAL-COMPARATIVE ANALYSIS OF THE “US” AND “THE OTHER”
DISCOURSE

ANNOTATION

This article analyzes the historical genesis and evolution of Oriental studies and Occidental studies based on a comparative methodological approach. The research primarily focuses on revealing the interconnection between scientific, cultural, religious, and political factors in the formation of the concepts of “us” and “the other” within Eastern and Western civilizations. In addition, the article examines the paradigms that shaped Oriental studies and Occidental studies as academic fields in different historical periods. The findings of the study provide an important theoretical basis for a deeper understanding of cultural and intellectual relations between the East and the West, as well as for identifying the historical roots of contemporary civilizational confrontations.

Keywords: Oriental studies, Occidental studies, “us” and “the other”, identity, Orientalism, Occidentalism, knowledge and power, comparative analysis.

Рўзибоев Достонбек Дилмурод угли
Национальный университет Узбекистана
Докторант (PhD) кафедры «Философия»
E-mail: roziboyevd831@gmail.com

ВОСТОКОВЕДЕНИЕ И ЗАПАДОВЕДЕНИЕ: ИСТОРИКО-КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ ДИСКУРСА «МЫ» И «ДРУГОЙ»

АННОТАЦИЯ

В статье проводится компаративистский анализ исторического генезиса и эволюции востоковедения и западоведения. Основное внимание в исследовании уделяется выявлению взаимосвязи научных, культурных, религиозных и политических факторов в процессе формирования понятий «мы» и «другой» в восточной и западной цивилизациях. Кроме того, в статье отдельно анализируются парадигмы, сформировавшие востоковедение и западоведение как научные направления в различные исторические периоды. Результаты исследования служат важной теоретической основой для более глубокого осмысления культурно-интеллектуальных отношений между Востоком и Западом, а также для выявления исторических корней современных цивилизационных противостояний.

Ключевые слова: востоковедение, западоведение, «мы» и «другой», идентичность, ориентализм, оксидентализм, знание и власть, компаративистский анализ.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Ma'lum bir tadqiqot sohalari borki ularni o'rganish uchun cheklangan doiradagi manbalarga murojaat qilishning o'zi kifoya qiladi. Biroq, ma'lum bir madaniy muhitdan turib boshqa bir madaniyat va o'zliklar haqida fikrlash uni tariflash biz tasavvur qilganimizdan-da murakkab jarayon bo'lib, bizning oldimizga avvalo begona madaniyat haqida biz qanchalik tariflashga haqlimiz degan o'rinli falsafiy muammoni qo'yadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki insoniyat tarixida boshqani anglashning aniq bir manbalar tizimi shakllanmagan. Chunki "boshqani bilish" aniq va mustaqil akademik yo'nalish sifatida shakllanmagan bo'lib, uni tadqiq etish uchun muayyan nom ostidagi asarlarga murojaat qilishning imkoni yo'q. Shu sababli uni yagona, bir xil va bir jinsli bilimlar majmuasi sifatida talqin etib bo'lmaydi. Aksincha, u turli yondashuv va yo'nalishlarga ega bo'lgan, bevosita yoki bilvosita tarzda "boshqa"ni muhokama qilish va uni anglash yoki tasvirlashga qaratilgan tadqiqotlar majmuasini ifodalaydi. Bu kabi qarashlar ba'zan sayohatnomalarda, tarixiy solnomalarda, axloqiy asarlarda, hatto ijtimoiy sohaga oid bo'lmagan kitoblarda ham uchrashi mumkin. Shu bois, muayyan bir xalq yoki etnik guruhning "boshqa"ga bo'lgan munosabatini anglash uchun o'sha madaniyat doirasida shakllangan barcha madaniy mahsulotlar majmuasini tahlil qilish zarur bo'ladi.

Tabiiyki, bunday majmua turli qarash va nuqtayi nazarlarni o'z ichiga oladi va bu bilimlar tizimida yagona umumiy yondashuv shakllangan, deb aytish mushkul. Biroq muayyan tarixiy davrda yaratilgan asarlar majmuasida ustuvor va hukmron bo'lgan tendensiyani aniqlash imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, kishilik jamiyatlarining dinamik rivojlanishi sababli "boshqa"ga bo'lgan munosabat va qarashlarning ustuvor shakllari tarixning turli davrlarida turlicha ko'rinish kasb etgan.

Ayni shu jihatlarni inobatga olgan holda qariyb ikki yarim ming yillikdan ortiq davrda shakllangan G'arb va Sharq madaniy munosabatlarida "Biz" va "Boshqa" ning shakllanishini sharqshunoslik (*orientalizm*) va g'arbsunoslik (oksidentalizm) fenomenlarining tarixiy evolyutsiya asosida davrlashtirish orqali tushunib yetish mumkin. Bu davrlashtirish bugungi davrda ham dolzarb bo'lib qolayotgan G'arb va Sharq dixotomiyasining madaniy-mafkuraviy, siyosiy ildizlarini tahlil qilish va tushunish imkonini bergan holda zamonaviy dunyoning mafkuraviy manzarasida so'ngi paytda tez-tez yangrayotgan sivilizatsion qarama-qarshiliklar kabi narrativlarni anglash imkonini beradi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. G'arb va Sharqda madaniy o'zaro anglashinuvni tarixiy davrlashtirishda yuqorida aytilganidek barcha davrlarni shakllantirgan yetakchi tendension xususiyatlarni etirof etgan holda amalga oshirish muhim. Aynan shunday qilinganda Sharqda ham

G'arbda ham boshqashunoslikning (sharshunoslik va g'arbsunoslik nazarda tutilyapti) umumiy davrlarini shakllantirish mumkin. Davrlashtirishda bir qancha tadqiqotchilar G'arb va Sharq sivilizatsiyalarining "boshqa"ga munosabatini turli nuqtayi nazarlardan bosqichlarga ajratishga e'tibor qaratganlar. Shuning uchun ham sharqshunoslik va g'arbsunoslikni davriy taraqqiyotda qiyosiy tahlil qilish muhim hisoblanadi.

G'arbda sharqshunoslikning shakllanishini davrlashtirish masalasi bir yoqlama jarayon emas. Bu murakkablik, eng avvalo, sharqshunoslik faqatgina ilmiy soha bo'lib qolmasdan, balki tarix davomida siyosat, din, madaniyat va mafkura bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shu bois, bu yo'nalishning paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlariga baho berishda olimlar turlicha fikr va yondashuvlarni ilgari surib kelganlar.

Ba'zi tadqiqotchilar sharqshunoslikning ildizlarini qadimgi davrlarga, xususan, yunon mutafakkirlarining Sharq haqidagi tasavvurlariga borib taqaladi, deb hisoblaydilar. Gerodot, Aristotel singari antik mualliflar Sharqni o'rganishni alohida ilm sifatida emas, balki o'zlaridan farqli bo'lgan dunyoni tushunishga bo'lgan tabiiy qiziqish natijasi sifatida ko'rganlar. Bu davrda Sharq "boshqa" makon sifatida tasavvur qilinib, u haqida umumiy, ba'zan esa afsonaviy qarashlar shakllangan.

Boshqa bir guruh olimlar esa sharqshunoslikning shakllanishini o'rta asrlar bilan bog'laydi. Ularning fikricha, xristian G'arbi va islom dunyosi o'rtasidagi to'qnashuvlar, salib yurishlari hamda missionerlik faoliyati Sharqni chuqurroq bilishga ehtiyoj tug'dirgan. Biroq bu ehtiyoj xolis ilmiy qiziqishdan ko'ra, ko'proq diniy va mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilgan. Shu sababli bu davrdagi sharqshunoslik Sharqni ko'pincha raqib yoki xavfli "boshqa" sifatida tasvirlagan.

Yana bir yondashuvga ko'ra, sharqshunoslik haqiqiy ilmiy yo'nalish sifatida Yevropada Uyg'onish davridan boshlab shakllana boshlagan. Aynan shu davrda Sharq tillari o'rganildi, qo'lyozmalar tarjima qilindi va universitetlarda Sharqqa oid bilimlar tizimli tarzda jamlana boshlandi. Shunga qaramay, bu ilmiy izlanishlar mustamlakachilik siyosati bilan yonma-yon kechgani sababli, Sharq haqidagi bilimlar ko'pincha amaliy va siyosiy manfaatlarga bo'ysundirildi.

XX asrga kelib, sharqshunoslikka bo'lgan munosabat yanada tanqidiy tus oldi. Edvard Saidning ishlari bu sohani qayta baholashga turtki bo'ldi. U sharqshunoslikni G'arbnings Sharq ustidan ustunlikni o'rnatishga xizmat qilgan bilimlar tizimi sifatida talqin qildi. Shu bilan birga, sharqshunoslikni davrlashtirish masalasi endi faqat tarixiy bosqichlarni sanab o'tish bilan cheklanmay, balki bilim, hokimiyat va madaniy tasvirlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ham hisobga oladigan yondashuvga aylandi.

G'arbda sharqshunoslikning shakllanishi va rivojlanishini davrlashtirish masalasi murakkab va ko'p qirrali ilmiy muammo hisoblanadi. Bu holat, avvalo, sharqshunoslikning faqat akademik yo'nalish sifatida emas, balki siyosiy, madaniy va mafkuraviy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shu sababli tadqiqotchilar sharqshunoslik tarixini davrlashtirishda turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar.

Jumladan, "Muhammad Hasan Zamaniy o'zining "G'arb sharqshunosligi va islomshunosligi" asarida G'arb sharqshunosligi tarixini Gerodot davridan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan jarayon sifatida ko'rib chiqib, uni o'n bosqichga ajratadi"[1, 3]. Uning yondashuvida sharqshunoslikning ilmiy shakllanishi bilan bir qatorda, tarixiy-siyosiy omillarning ta'siri ham muhim o'rin tutadi. "Ayrim olimlar, xususan Salim al-Hajj, sharqshunoslik tarixini to'rt bosqich doirasida tahlil qilgan bo'lsa, boshqa tadqiqotchilar uni olti bosqichga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'rganlar" [1, 3].

Zamonaviy tadqiqotchilar orasida turk olimi "Yuksel Bulut sharqshunoslikni bilim va hokimiyat munosabatlari doirasida tahlil qilib, uni klassik, modern va postkolonial jihatdan davrlashtiradi" [2, 21–38]. Bu yondashuv sharqshunoslikni faqat ilmiy faoliyat emas, balki muayyan tarixiy davrlarning mafkuraviy ehtiyojlariga xizmat qilgan diskurs sifatida tushunishga imkon beradi.

Umuman olganda, G'arb sharqshunosligini davrlashtirish borasida yagona va mutlaq yondashuv mavjud emas. Turli olimlar tomonidan taklif etilgan tasniflar sharqshunoslikning turli jihatlarini — ilmiy, siyosiy, diniy va madaniy tomonlarini yoritishga xizmat qiladi. Bu esa sharqshunoslikni yaxlit va tanqidiy ruhda o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shubhasiz, yuqoridagi har bir tasnif muayyan g'oyaviy va metodologik yo'nalish ta'sirida yuzaga kelgan bo'lib, ko'pincha siyosiy muhitning bilish jarayoniga ko'rsatgan ta'siri bilan

bog'liqdir. Biroq avvalgi tasniflardan farqli ravishda biz masalaga faqat siyosiy nuqtayi nazardan emas, balki madaniy va sivilizatsion yondashuv asosida qarashga harakat qildik. Shuningdek, tasnif faqat tarixiy voqealarga emas, balki Sharq va G'arb sivilizatsiyalari tarixida "boshqa"ni anglashga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga asoslanadi. Shu nuqatiyinzardan Sharq va G'arb munosabatlari to'rtta yirik tarixiy bosqichga bo'linadi.

Muhokama. Tarixiy manbalarda qayd etilgan Sharq va G'arb o'rtasidagi dastlabki jiddiy munosabatlar miloddan avvalgi VI asrda Eron va Yunoniston o'rtasida yuzaga kelgan siyosiy-harbiy qarama-qarshilik bilan bog'liqdir. Yunonlar bu davrda o'z raqibini yaxshiroq anglash, unga qarshi mudofaa va hujum strategiyalarini ishlab chiqish maqsadida "Sharqni bilish"ga kirishganlar. Shu sababli, G'arbda "boshqa"ni anglash an'alarining ildizlarini qadimgi Yunoniston davriga borib taqaladi, deyish mumkin.

Aslida "Sharq" va "G'arb" atamaları yunonlarning o'ziga xos geografik tasavvuridan kelib chiqqan. "Ular O'rta Yer dengizi havzasini, xususan Yunonistonni dunyoning markazi deb hisoblaganlar. O'rta Yer dengizining shimolini Yevropa, janubini Liviya (Shimoliy Afrika), sharqiy qismini esa Osiyo deb ataganlar. Agar Yunonistonni markaz sifatida olsak, Osiyo uning sharqida, Yevropa esa g'arb va shimolida joylashgan bo'ladi. Aristotel ham shu tasavvurga tayangan holda Yunoniston aholisi o'ziga xos, boshqalardan ajralib turuvchi ustun xalq ekanini ta'kidlagan" [3, 18].

Garchi yunonlar nazarida eronliklar eng muhim "boshqalar" bo'lgan bo'lsa-da, ayrim yunon mualliflari Yunonistonni kuchayib borayotgan Eron imperiyasiga qarshi yanada qat'iy qarshilikka undash maqsadida sharqliklar va xususan eronliklar haqida buzib ko'rsatilgan, salbiy tasvirlar yaratganlar. Yunon faylasuflari, tarixchilari, geograflari, dramaturglari va shoirlari o'z asarlarida ko'pincha yunonlarni osiyolik xalqlardan tubdan farqli tarzda tasvirlaganlar. Ular Osiyo jamiyatlarini qat'iy ijtimoiy tabaqalarga bo'lingan, harakatsiz, zulm va buzuqlikka botgan jamiyatlar sifatida ifodalab, yunonlarni esa fazilatli, adolatparvar va erkin xalq sifatida ko'rsatganlar.

Yunonlar "boshqa"ning o'zligini belgilashda diniy omillarni asosiy mezon sifatida kamroq qo'llaganlar. Ular diniy ta'limotlarga kuchli mutaassiblik bilan yondashmaganlar. Yunonlar uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan narsa — fuqarolik tushunchasi bo'lib, u siyosiy va ijtimoiy identifikatsiyaning eng muhim asosi hisoblangan. Shu bois, "boshqa"ni ta'riflashda din va diniy farqlanish ikkinchi darajali rol o'ynagan.

Yunoniston Aleksandr tomonidan zabt etilgach, bu jarayon to'xtab qoldi, deb o'ylash noto'g'ri. Makedoniyalik Aleksandr harbiy jihatdan Yunonistonda ustunlikka erishgan bo'lsa-da, madaniy jihatdan ushbu sivilizatsiyadan ta'sirlandi va uning yurishlari natijasida ellinizim fenomeni vujudga keldi.

Xristianlashuvdan oldingi davrdagi Rim imperiyasini ham aynan yunon analarining davomchisi sifatida baholash mumkin. Rimliklar yunonlar tomonidan shakllantirilgan Sharq-G'arb dixotomiyani ma'lum bir transformatsiyalar bilan birga davom ettirdilar. Rim davrida fuqarolik tushunchasi shahar-davlat chegarasidan chiqib, umumimperiyaviy maqom kasb etdi, biroq baribir "biz" va "boshqa"ni ajratish mezon sifatida fuqarolik muhim identitlik bo'lib qoldi.

Ikkinchi davr Islom va xristianlikning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Rim imperiyasining xristianlashuvi va Umaviy hamda Abbosiy xalifaliklarning vujudga kelishi bir vaqtda sodir bo'lmagan bo'lsa-da, "boshqa"ni anglash jarayoniga o'xshash ta'sir ko'rsatib, Sharq va G'arbda "boshqashunoslik" mohiyatini tubdan o'zgartirdi.

Islom va xristianlikning har ikkisi kufr va iymon tushunchalariga urg'u berib, identitet shakllanishida muhim rol o'ynadi. Xristianlikning Rim imperiyasi tomonidan qabul qilinishi va islomiy imperiyalarning shakllanishi natijasida diniy identitet siyosiy tizimlar bilan uzviy bog'lanib ketdi. Natijada bu dinlarning "o'zlikni shakllantiruvchi" va ayni paytda "boshqani ajratuvchi" roli yanada kuchaydi. Shu sababli mazkur davrning eng muhim xususiyati — "boshqa"ni ta'riflash va anglashda dinning markaziy o'rin egallaganligi hisoblanadi. Din asosida yaratilgan "boshqalik" tushunchasi bu davr "boshqashunosligi"da paradigmal asos bo'ldi.

Musulmonlar bu davrda harbiy, ilmiy va texnologik sohalarda G'arbdan ancha ilgari ketgan edilar. Salib yurishlarida yakuniy g'alaba musulmonlar tomonida bo'ldi. Islom olamidagi kutubxonalar va olimlar faoliyati Yevropaning "zulmat asrlari" bilan qiyoslab bo'lmas darajada

rivojlangan edi. “Yirik tarixshunos Dyurantning qayd etishicha, faqat Bag‘dodning o‘zida o‘ttizta madrasa mavjud bo‘lib, Nizomiya madrasasi ulardan faqat bittasi edi. Andalusiyada esa yetmishdan ortiq jamoat kutubxonasi mavjud bo‘lgan” [4, P. 330–340].

Rodinson “Islomning G‘arb yaratgan qiyofasi va G‘arb tadqiqotlari” nomli maqolasida ushbu davr Yevropasi uchun musulmonlar asosiy dushman bo‘lganini ta’kidlaydi” [5, P. 11]. Yunonlar uchun eronliklar qanday “eng muhim boshqa” bo‘lgan bo‘lsa, bu davrda musulmonlar G‘arb uchun shunday rol ni bajargan.

G‘arb sharqshunosligining uchinchi davri Yevropada Uyg‘onish davri va undan keyin sanoat inqilobi bilan boshlandi. Zamonaviy sharqshunoslikning dastlabki namunalarini sayohatnomalarda ko‘rish mumkin. Ularning eng mashhurilaridan biri — Marko Poloning sayohatnomasi hisoblanadi. Marko Polo Sharqni ilmiy asosda o‘rganishga intilgan sharqshunoslar silsilasining boshlanish nuqtasi bo‘ldi. Dastlab bu davrda diniy targ‘ibot hali muhim o‘rin tutgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uning ta’siri tobora kamayib bordi. “Rodinson sharqshunoslikning dastlabki bosqichlarida Sharq obrazining o‘zgarishini sekulyarizm orqali izohlaydi, bu esa Yevropaning diniy qarashlardan uzoqlashganini ko‘rsatadi” [5,].

Ushbu davrning eng mukammal nazariy tahlili Edvard Saidning *Orientalizm* asarida berilgan. Said bilim shakllanishining hokimiyat bilan bog‘liqligini tanqid ostiga oladi. U Fuko va Gramschi g‘oyalariga tayanib, G‘arb bilim tizmining Sharq ustidan g‘egemonligini ochib beradi. Siyosatchilar, tilshunoslar, yozuvchilar, shoirlar va sayohatchilar tomonidan yaratilgan Sharq haqidagi matnlarni yagona diskurs sifatida tahlil qiladi. Bu diskurs Sharqni “yaratgan”, ya’ni Edvard Said ta’biri bilan aytganda, uni ishlab chiqargan. Keyinchalik bu diskurs ommaviy axborot vositalari orqali yanada mustahkamlanib, Sharq obrazining uzluksiz qayta ishlab chiqarilishiga xizmat qildi. “Ushbu diskurs Lyotarning “modernizimning katta rivoyati” deb atagan konsepsiyasi doirasida shakllangan bo‘lib, G‘arb ongida “boshqa” nomidan so‘zlash huquqi va majburiyati mavjud degan tasavvurni singirdi” [6, pp. 7–15].

Bu diskurs doirasida “boshqa” mutlaq begona, doimo qarama-qarshi va ziddiyatli borliq sifatida talqin qilindi. “Spivak ta’biri bilan aytganda, zamonaviy G‘arb kishisi o‘zini yuksak va ustun mavqega qo‘yib, aynan shu nuqtadan turib o‘zini va “boshqa”ni tasvirlay boshladi” [7, P. 271].

To‘rtinchi davrning boshlanishini jahon urushlaridan keyingi davr bilan bog‘lash mumkin. Bu urushlar mustamlakachilik tizimining yemirilishiga turtki berdi. Jahon urushlari modernizim orzusining qudrati va mutlaq ishonchini larzaga soldi. Postmodern tafakkur vakillari modernizimning narativlarini shubha ostiga olib, uni dekonstruksiyasini amalga oshira boshlashdi.

Postmodernistlarning tanqidiy yondashuvlari natijasida G‘arb mutafakkirlarining “boshqa”ga munosabati ham o‘zgardi; birlikdan ko‘ra xilma-xillik va rang-baranglik ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Bunga yani paytda, urushdan keyingi o‘n yilliklarda mustamlaka ostidagi mamlakatlarning ozodlikka erishish ham sabab bo‘ldi. Natijada Sharqning o‘ziga bo‘lgan qarashi ham tubdan o‘zgardi. Sharqda o‘zlikni yangidan tanish uyg‘onish tendensiyasi kuchaydi.

G‘arbda sharqshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi “boshqa”ni anglash jarayonining muayyan tarixiy bosqichlari bo‘lib, bu jarayon ilmiy qiziqish bilangina emas, balki siyosiy hokimiyat, diniy mafkura va madaniy ustunlik diskurslari bilan ham yo‘g‘rilgan edi. Ayniqsa, modernizim davrda shakllangan orientalistik diskurs G‘arb ongida Sharqni tasvirlash, talqin qilish va hatto uning nomidan so‘zlash huquqini o‘zida mujassam etgan bilimlar tizimi sifatida namoyon bo‘ldi. Natijada Sharq ko‘pincha G‘arb tomonidan yaratilgan, qayta ishlab chiqilgan va ideallashtirilgan yoki salbiylashtirilgan obrazlar orqali anglandi.

G‘arbning Sharq haqidagi bilim ishlab chiqarishi Sharqda ham befarq qabul qilinmadi. Aksincha, G‘arb bilan yuzma-yuz kelish, uning siyosiy, harbiy va madaniy ustunligini boshdan kechirish Sharqda ham “boshqa”ni G‘arbni — anglashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Shu tariqa Sharqda G‘arbni idrok etish, talqin qilish va baholashga qaratilgan qarashlar, matnlar va diskurslar shakllana boshladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Sharqda shakllangan g‘arbsunoslik G‘arbdagi sharqshunoslikdan mohiyatan farq qiladi. Agar G‘arb sharqshunosligi ko‘pincha ustunlik va hokimiyat pozitsiyasidan turib ishlab chiqilgan bo‘lsa, Sharq g‘arbsunosligi asosan himoyaviy

xarakter kasb etgan. Shu bois Sharqda G‘arbni anglash jarayoni ko‘proq o‘zlikni anglash, o‘z madaniy va sivilizatsion mavqeini qayta belgilash bilan uzviy bog‘liq holda rivojlandi.

Mazkur jihatlarni inobatga olgan holda, maqolaning keyingi qismida Sharqda g‘arbhunoslikning shakllanishi va rivojlanishini tarixiy davrlashtirishga harakat qildik. Bu davrlashtirish G‘arb sharqshunosligi kabi faqat muayyan tarixiy voqealarga emas, balki Sharq tafakkurida “boshqa” — ya‘ni G‘arbni anglashga xos bo‘lgan ustuvor tendensiyalar, mafkuraviy yo‘nalishlar va madaniy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Ana shundagina Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy-intellektual munosabatlarning ikki tomonlama, o‘zaro ta‘sirli va murakkab xarakteri yanada aniqroq namoyon bo‘ladi.

Sharqdagi g‘arbhunoslikni ham tarixiy bosqichlardagi umumiy aloqadorlikdan kelib chiqib to‘rt bosqichda ko‘rib chiqdik. Qolaversa davrlashtirishdagi bunday tarixiy yondashuv komparativistik tahlil asosida yangi xulosalar olish imkonini beradi.

Sharqda G‘arbni tanishning ilk bosqichi qadimgi Eronda Ahamoniylar va Yunonlarning munosabati bilan shakllangan edi. Mazkur davrning eng muhim xususiyatlaridan biri — “boshqa”ni aniqlashda din omilining uncha katta rol o‘ynamaganidir. Axamoniylar davridagi dindorlikning asosiy belgisi diniy bag‘rikenglik va rasmiy davlat dinining mavjud emasligi bo‘lgan. Tadqiqotchilar Kir II shaxsini manbalar asosida shunday tasvirlaydilar, u hech bir xalqni o‘zining urf-odatlarini va diniy e‘tiqodlariga bo‘ysundirishga majbur qilmagan, ularning xudolari va diniy qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lgan.

Kir II ning bu darajadagi bag‘rikengligi va oliyjanoblighi g‘arb olimlarini ham hayratga solgan. Jumladan, Romen Girshman shunday yozadi: “Tarixda kam sonli hukmdorlar borki, ular Kir II singari o‘zidan keyin yaxshi nom qoldirgan. U buyuk sarkarda va xalq yetakchisi edi. Saxiy va tolerant bo‘lgan, zabt etilgan xalqlarni yagona hayot tarziga majburlashni hech qachon o‘ylamagan” [8, pp. 123–125].

Bu davrda Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari o‘rtasidagi madaniy aloqalar ikki tomonlama ijobiy qabul qilingan. “Agar Eron tafakkurining yunon falsafasiga, jumladan, Aflotun qarashlariga ko‘rsatgan ta‘siri haqida Fathulloh Mujtaboiy, Stefan Panusi va boshqa olimlar bildirgan fikrlarni bir chetga qo‘ysak ham, Aleksandr tomonidan Axamoniylar yozma manbalari va xazinalarining Yunonistonga olib ketilgani tarixiy haqiqatdir” [1, 8].

Ibn Xaldun ham shu mazmunda shunday deydi:

“Eronliklar aqliy fanlarga katta ahamiyat bergan, bu fanlar ularning yurtida nihoyatda rivojlangan edi. Chunki ularning davlati nihoyatda keng va qudratli bo‘lgan. Aytishlaricha, Iskandar Doroni o‘ldirib, Kayoniylar davlatini mag‘lub etgach, eronliklarning son-sanoqsiz kitoblari va bilimlari yunonlarga o‘tgan” [9, p. 445–446]. Bu davrda Yunoniston Sharqqa falsafasini taqdim etdi, Sharq esa G‘arbgacha diniy-madaniy merosini tuhfa qildi.

Ikkinchi davr Islom va Xristianlik dinlarining paydo bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu tarixiy bosqichda Islom sivilizatsion hududida tarjimachilik harakati, turli ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida Sharq olamida yaratilgan asarlar miqdori va mazmuni G‘arbnikidan sezilarli darajada ustun bo‘lgan.

Bu davrning e‘tiborga molik jihati — musulmonlarning Yevropa va umuman g‘ayrimusulmon jamiyatlar ustidan nisbiy ustunligidir. Uill Dyurant bu holatni quyidagicha ifodalaydi: “Islom milodiy 700–1200 yillar (81–597 hijriy) oralig‘ida qudrat, tartib, davlat hududlarining kengayishi, axloqni poklash, turmush darajasi, adolatli qonunlar, diniy bag‘rikenglik, adabiyot, ilm, tibbiyot va falsafa sohalarida dunyoga yetakchi bo‘lgan. Islom yurtlarida san‘at va madaniyat o‘rta asr xristian Yevropasiga qaraganda ancha keng yoyilgan edi” [3, P. 341–343].

Nadia Mariya ash-Shayx “Arablarni nigohida Vizantiya” asarida arablarning Vizantiya imperiyasiga bo‘lgan munosabatini tahlil qiladi. Tadqiqot VII asrda Islomning paydo bo‘lishidan 1453 yilda Konstantinopolning qulashigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Muallif “boshqa” haqidagi tasavvurlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarganini tan olsa-da, manbalar ko‘pincha avvalgi tasvirlarni takrorlagani sababli, Vizantiyaliklar va musulmonlar o‘rtasidagi munosabat asosan ziddiyatli tarzda namoyon bo‘lganini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, “islomiy jamiyat Vizantiya bilan doimiy dushmanlik

holatida bo‘lgan” [10,P.15,25]. Ushbu qarama-qarshilikning ildizi esa asosan diniy farqlarda mujassamdir.

Uchinchi davrda G‘arb sharqshunosligi jiddiy o‘zgarishlarga yuz tutdi. Bilim va hokimiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikning kuchayishi hamda din omilining nisbatan chekinishi sharqshunoslikka kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Bunga javoban Sharqda g‘arbsunoslik ham tubdan o‘zgardi, biroq bu o‘zgarish ko‘proq reaktiv va mudofaaviy xarakterga ega edi.

G‘arbda texnologiyaning jadal rivoji sharqliklar uchun hayratli hol bo‘ldi. Dastlabki munosabatlar o‘zini inkor etish va G‘arbga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish shaklida, boshqa o‘rinlarda esa Sharqona modernizatsiya fenomeni bilan namoyon bo‘ldi.

Bu davrning muhim jihatlaridan biri shundaki, “inson bo‘lish uchun sivilizatsiya majbur qilgan ishlarni bajarishning o‘zi kifoya” degan qarash shakllandi. Shu bilan birga, ayrim mutafakkirlar — masalan, Sayyid Jamoliddin al-Afg‘oniy— G‘arbga nisbatan tanlab yondashuvni amalga oshirdi. Bu yondashuvda “boshqa” taqlid obyektini bo‘lmasa-da, ma‘lum darajada e‘tirof etildi; ayni paytda u kamsitildi ham.

G‘arbga nisbatan ilk ilmiy javob sifatida “Sayyid Jamoliddin al-Afg‘oniyning “Materialistlarga raddiya”si tilga olinadi”[11]. Ushbu risolada G‘arb materialistik falsafasi jiddiy tanqid qilinadi.

Bu davrda, G‘arbda cherkov va ko‘plab diniy ta‘limotlar chetga surilib, sekulyarizm, liberalizm singari g‘oyalar ilgari surildi. Shunga qaramay, ayrim sharqshunoslar dinning identitet yaratishdagi rolini e‘tibordan chetda qoldirmadilar; ko‘plab sharqshunoslarning Sharqqa nigohi hanuz “missionerlar”ga xos qarash bo‘lib, ularni xristianlashtirish vazifasi yevropaliklar zimmasida, degan tasavvur saqlanib qoldi. Xuddi shunday ikkiyoqlama munosabat Sharqda ham kuzatildi: ayrim g‘arbsunoslar dinni chetga surishni ma‘qul ko‘rgan bo‘lsalar, boshqalar uni isloh qilish, ya‘ni “asl din”ga qaytish g‘oyasini ilgari surdilar.

Bu davrning Sharqdagi yana bir muhim belgisi — “boshqa”ga munosabatdagi beqarorlikdir. Mustamlakachilarning “boshqa” haqidagi qarashlari ta‘sirida, ayniqsa sharq ziyolilar nigohi ham o‘zgarib bordi. G‘arb bilan aloqalari ko‘proq bo‘lgan shaxslarda bu o‘zgarishlar yaqqol ko‘rindi. Mazkur davr — Sharq ziyolilarining G‘arbga taqlid qilish davri bo‘lib, bu hatto “boshqa”ni ko‘rish uslubida ham namoyon bo‘ldi.

To‘rtinchi bosqichda, uchinchi davrdagi ikkilanish yanada kuchliroq shaklda davom etdi. Sharqliklarda G‘arbnii bilishga katta ehtiyoj shakllandi bilan birgalikda g‘arbsunoslik tadqiqotlari tarkibida katta tarqoqlik va rang-baranglik yuzaga keldi. Umuman, G‘arb haqidagi yondashuvlarni uch guruhga ajratish mumkin: rad etish, qabul qilish va tanlab olish. “Tanlab olish” yo‘nalishidagilar bevosita Sayyid Jamoliddin al-Afg‘oniy yo‘lini davom ettiradilar. “Qabul qilish” ko‘proq zamonaviylikka moyil ziyolilar orasida ustun. Qabul qilish bu self-orientalizm (o‘z-o‘zini g‘arbona andozalarga moslashtirish) fenomeni bilan namoyon bo‘lsa tanlab olish o‘ziga xos sharqona modernizatsion yondashuvlarni vujudga keltiradi. “Rad etish” esa Yaqin Sharq va Janubiy Sharqiy Osiyoda avvaliga Kamol Ota Turk davrida Turkiyada keyinroq esa Eron va boshqa ba‘zi bir jamiyatlarda kuzatilgan.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda, “biz” va “boshqa” munosabatiga oid mavjud tasniflar e‘tiborga olingan holda, tarixiy davrlashtirishning yangi modeli taklif qilindi. Bu yondashuvga ko‘ra, Sharq va G‘arb sivilizatsion tarixida “boshqa”ni anglash jarayoni nisbatan kichik davrlardan farqli ravishda to‘rtta yirik bosqichga ajratildi.

Birinchi davr qadimgi Yunonlardan Rim imperiyasining xristianlashishigacha davom etadi. Yunonlar “boshqa”ni belgilashda diniy mezonlarni deyarli e‘tiborsiz qoldirib, ko‘proq fuqarolik (polislik) tushunchasini markazga qo‘ygan. Qadimgi Eronda, jumladan Ahamoniylar davrida ham dinning siyosiy va jamoaviy identitetni belgilashdagi roli qat‘iy tarzda markazlashmagan. Shunday qilib, bu davrning umumiy belgisi — “boshqa”ni ta‘riflashda din omilining cheklanganligi hisoblanadi.

Ikkinchi davr Rimning xristianlashishidan o‘rta asrlar yakunigacha cho‘ziladi va Uil Dyurant uni “Iymon davri” deb ataydi. Bu bosqichning asosiy xususiyati — “boshqa”ni ta‘riflash va anglashda dinning paradigmalar asos ekanligi hisoblanadi.

Uchinchi davr Yevropada Renessans va keyin sanoat inqilobi bilan boshlanadi. Bu davrni nazariy jihatdan eng kuchli izohlab bergan olimlardan biri Edvard Said bo‘lib, u Sharq haqidagi g‘arbonsa bilim tizimini G‘arbning Sharq ustidan dominantligi uchun asos bo‘lganini dalillaydi. Sharq va Eron uchun esa bu davr “boshqa”ga qarashdagi beqarorlik va izdan chiqish davridir.

To‘rtinchi davrda G‘arb sharqshunosligida ikki oqim shakllandi: birinchi oqimdagilar uchinchi davrda mustahkam shakllangan klassik sharqshunosligini davom ettirib, dualizmni kuchaytiradi; ikkinchi oqim esa postmodernizm tafakkuri asosida shakllangan bo‘lib madaniy xilmaxillikni e’tirof etadi. Sharqda esa “boshqa”ga munosabat rad etish, qabul qilish va tanlab olish ko‘rinishida shakllanadi.

Umuman olganda, sharqliklarning g‘arbsunosligi ham, g‘arbning sharqshunosligi ham ko‘pincha “boshqa”ni konstruksiyalash jarayoniga aylandi: G‘arb Sharqni “o‘ta qoloq” qilib ko‘rsatib hukmronligini oqlagan bo‘lsa Sharq esa G‘arbnı “o‘ta tajovuzkor” qilib tasvirlab, unga qarshi o‘zini ta’riflashga uringan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. نساج، حمید. مطالعات تاریخ فرهنگی؛ //ادوار تاریخی شناخت «دیگری» در غرب و شرق با تأکید بر نگاه محققان معاصر سال سوم، شماره دوازدهم، تابستان ۱۳۹۱. — تهران. — صص ۱۰۵-۱۳۰ — پژوهشنامه انجمن ایرانی تاریخ
2. Bulut, Yüksel. *Oryantalizmin Kısa Tarihi*. İstanbul: Küre Yayınları, 2013.
3. مشهد: جهاد دانشگاهی مشهد، ۱۳۸۶. صص ۱۰-۱۳. تاریخچه شرق شناسی همتیان گلی، عبدالله.
4. Durant, Will. *The Story of Civilization. Vol. IV: The Age of Faith*. — New York: Simon and Schuster, 1950.
5. Rodinson M. *The Western Image and Western Studies of Islam // The Legacy of Islam / ed. by J. Schacht, C. E. Bosworth*. — Oxford: Oxford University Press, 1974.
6. Lyotard, J.F. *The Postmodern Condition: A Report on Knowledge*. Translated by Geoff Bennington and Brian Massumi. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984.
7. Spivak, G. C. *Can the Subaltern Speak? // Nelson C., Grossberg L. (eds.). Marxism and the Interpretation of Culture*. — Urbana: University of Illinois Press, 1988.
8. Roman Ghirshman. *Iran: From the Earliest Times to the Islamic Conquest*. Translated by Stuart Gilbert and James Emmons. — London: Thames and Hudson, 1954.
9. Ibn Khaldun. *The Muqaddimah: An Introduction to History. Vol. 2 / Trans. by Franz Rosenthal*. — Princeton: Princeton University Press, 1967.
10. El-Cheikh, Nadia Maria. *Byzantium Viewed by the Arabs*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2004. — P. 15, 25.
11. سید جمال الدین اسدآبادی. رساله نچریه (در رد مادی گری). — تهران: بی ناشر، قرن نوزدهم

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.

ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729 “СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА”.

PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000